



“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.

	O‘zbek va qozoq tillaridagi “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlarida qo‘llanilgan qarindoshlik ma‘nosini ifodalovchi so‘zlar.	
15	Mohinur USMONOVA, O‘zbek va qozoq xalq ertaklaridagi turg‘un birikmalarning qiyosiy tahlili	541
16	Hayotxon SALAYEVA, Gurlan (Xorazm) shevasida polizchilikka oid xalq leksikasi xususida	544
17	Mufassal PARDAYEVA, Go‘ro‘g‘li turkum dostonlarining dastlabki variantlarida Ahmad Sardor obrazi	547
18	Серик ТУРПАНАЛИЕВ, Қабдеш жұмаділов прозасындағы төл тілдің көркемдік сипаты	551
19	Amina DEHQONOVA, O‘zbek va nemis ertaklarida xalqona an‘analar	554
20	Dilrabo KOMILOVA, Yangibozor (Xorazm) shevasidagi kiyim-kechak savdo-sotig‘ida ishlatiladigan so‘zlar	558
21	Mohinabonu YUNUSOVA, Toshkent viloyati uyg‘ur shevalarining ayrim leksik xususiyatlari	561
22	Marjona MUSULMONOVA, Boysun tumani bog‘dorchilik leksikasi	565
23	Barchinoy TOSHPO‘LATOVA, Samarqand bolalar folklorining janrlar tarkibi	565
24	Moxlaroyim NAZAROVA, Halima Xudoyberdiyeva she‘riyatida etnografik folklorizmlarning badiiy-estetik talqini	574
25	Fotima KOMILOVA, O‘zbek-turk qarg‘ishlarning mifopoetik talqini	576
26	Shohsanam NOMAZOVA, Dostonlarda obrazlar tizimi masalasi va “Sanamgul” dostonidagi obrazlar	580
27	Muhtarama MAMITOVA, Oila mavzusi bilan bog‘liq ayrim o‘zbek va turk maqollarining tipologik tahlili	583
28	Lobar QULDASHEVA, Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalashda xalq og‘zaki ijodidan foydalanishning pedagogik ahamiyati	587
29	Sunbula HABIBULLAYEVA, “Shirin va Shakar” dostonida fonetik dialektizmlarning o‘rni (qo‘llanishi)	590
30	Nilufar TURG‘UNOVA, Sirdaryo viloyatidagi Andijon shevalarining fonetik morfologik xususiyatlari	594
31	Sarvinov RAXIMOVA, G‘ijduvon sandiqsozlik so‘zlari	597
32	Aziza ELMIRZAYEVA, Usmon azim lirikasida folklor va badiiy ko‘chim uyg‘unligi	599
33	Diyora NE‘MATOVA, Folklorida til va leksika masalasi: lingvofolkloristik tadqiqotlar tarixi, nazariy asoslari va zamonaviy yondashuvlar	605
34	Hanifa XODJIYEVA, Mavsumiy marosimlar tasnifi	611
35	Husniddin AZIMJONOV, Tarixiy haqiqat va badiiy talqin uyg‘unligida bilga xoqon obrazi	614
36	Sitora O‘KTAMOVA, Hajv tushunchasining etimologiyasi va falsafiy-estetik mohiyati	617

G'IJDUVON SANDIQSOZLIK SO'ZLARI

THE VOCABULARY OF TRADITIONAL CHEST-MAKING IN G'IJDUVON

Sarvinoz RAXIMOVA,

Navoiy davlat universiteti O'zbek tili va adabiyoti
mutaxassisligi magistranti
10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/SARP1638

Annotation. *This article investigates the lexical and semantic characteristics of carpentry vocabulary in Gijduvan, specifically focusing on terminology related to chest-making. The study analyzes the etymological layers of these terms, including Turkic, Persian-Tajik, and Russian origins, as well as the figurative application of certain lexical units.*

Key words: *carpentry, chest-making, vocabulary, terminology, craftsmanship, lexical-semantic analysis.*

Duradgorlik o'zbek xalq hunarmandchiligining qadimiy va muhim tarmoqlaridan biridir. G'ijduvon hududida duradgorlik, ayniqsa, sandiqsozlik hunari qadimdan rivojlangan va hozirgacha saqlanib kelmoqda. Duradgorlikda yog'ochga ishlov berish asosida turli xo'jalik va maishiy buyumlar tayyorlanishi barchamizga ma'lum. "Fors-tojik o'zlashmalaridan *duradgor* atamasi etimologik jihatdan qiziqarli: fors tilida *dar* "eshik", *gor* "yasovchi" ma'nolarini anglatadi" [Abdullayev A., 2008:320]. "Dastlab bu so'z "eshik ustasi" ma'nosini anglatgan, keyinchalik umumiy ma'noga –"yog'och ustasi" ma'nosiga kengaygan" [Mamatkulova Z.R., 2025:44]. Bu hunarning shakllanishi uy-ro'zg'or madaniyati va me'morchilik bilan bog'liq bo'lgan. Yog'ochga ishlov berib, undan insonlarga xizmat qiluvchi turli xil buyumlar yasovchi **usta duradgor** deyiladi, hududiy tilda **usto (usta)** deb nomlanadi. Bu hunar, o'z navbatida, mahsulot turiga qarab ichki sohalarga bo'linadi. Bular sandiqsozlik, eshik-deraza yasash, mebelsozlik, qurilish materiallari ishlab chiqarish kabi tarmoqlari mavjud. G'ijduvon hududida asosan an'anaviylikni saqlab qolgan duradgorlik tarmog'i bu sandiqsozlikdir. Qolgan duradgorlik tarmoqlari zamon talabi bilan yangicha texnika va uskunalar asosida rivojlanib, mahsulot ishlab chiqarmoqda. G'ijduvonning ayrim qishloq va mahallalarida sandiq yasashning an'anaviy usullarini saqlab, o'z faoliyatini olib borayotgan sanoqli ustalarni uchratishimiz mumkin. Bulardan biri asli kasbi o'qituvchilik bo'lgan, sandiqsozlik kasbini ikkinchi kasb qilib, uzoq yillardan buyon bu sohada faoliyat olib borayotgan Bozorov Zayniddin aka va u kishining o'g'illari; shogirdlari: Bozorov Ozodbek va Raximov Zamonali ustalar o'z xonadonlarida sandiq ishlab chiqarish bilan shug'ullanib, halol kasblari ortidan ro'zg'or tebratib, an'anaviy hunarmandchiligimizga o'z hissalarini qo'shib kelmoqdalar. Bu hunarda asosiy xomashyo archa daraxtining yog'ochi hosoblanib, mustahkam va kesganda holatini yaxshi saqlab qolganligi uchun ham foydalanishadi. Tol va tut daraxtlari faqatgina sandiqning oyoq qismida ishlatiladi, chunki bu yog'ochlar stanokda kesilganda tekisligini yo'qotib, tovlanib, buralib, o'z holatini yo'qotadi. Sandiq yasash bir nechta jarayonni o'z ichiga oladi: sasna yog'och olinib, stanok arrada kerakli o'lchamda kesiladi, kesilgan yog'och stanok randada silliqalanadi, randalangan yog'och sandiqqa mos yupqalikda yana kesiladi, yupqa yog'ochlar yana stanok randada silliqalanadi, mahsulot o'lchamidagi tayyor yog'ochlar tayanch yog'och (mahalliy tilda *eshak* deyiladi) ustiga qo'yilib, kichkina mix yordamida bir-biriga birlashtirib qotiriladi, to'rt tomoni qotirilgan sandiqning xomaki ko'rinishi mahalliy tilda *karobka* deyiladi. Sandiq qismlari uchun quyidagi atamalar faol qo'llanadi: usti, tagi, biqini (yon tomoni), oyog'i, dasta, chasvak. Yasashda foydalanadigan uskunalar: stanok arra, qo'larra, stanok randa, qo'l randa, tesha, mix, metr, eshak, cho'tka(shotka), bo'yoqlar, tunika. Turli naqshlar va gular asosida bezatiladi. Duradgorlikka oid so'zlarning eng qadimiy qatlami turkiy til asosiga borib taqaladi. Jumladan, **usti, tagi, biqini, oyoq, og'iz** kabi birliklar insonning amaliy tajribasi asosida shakllangan bo'lib, tashqi shakl va joylashuvni anglatadi. Shuningdek, **archa, tut, tol** kabi daraxt nomlari ham turkiy ildizga ega bo'lib,

duradgorlikda asosiy xomashyo sifatida xizmat qilgan tabiiy resurslarni bildiradi. Yog'ochga ishlov berish jarayonini ifodalovchi **kesiladi, tekislanadi, qotiriladi, ranglanadi** kabi fe'l atamalar ham turkiy bo'lib, texnologik bosqichlarni ketma-ketlikda ifodalaydi.

Rus va Yevropa tillari orqali kirib kelgan terminlar esa asosan sanoat va texnika taraqqiyoti bilan bog'liq. **Stanok, arra, randa, stanok randa, tesha, mix, metr, cho'tka** kabi birliklar yog'ochga ishlov berish jarayonida qo'llaniladigan asbob-uskunalarni ifodalaydi. Ushbu terminlar an'anaviy hunarmandchilikdan sanoatlashgan ishlab chiqarishga o'tish jarayonida o'zlashgan.

Shuningdek, **gul** tojik tilidan, **naqsh** arab tilidan o'zlashgan bo'lib, estetik tushunchalarni ifodalashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, bezak va tasviriy elementlar bilan bog'liqdir. **Eshak** so'zi esa duradgorlikda yog'ochni ishlash uchun tayanch vazifasini bajaruvchi moslama nomi sifatida qo'llanadi.

Yog'och turlarini bildiruvchi **sosna (sasna)** kabi birliklar esa fonetik o'zgarishlarga uchragan o'zlashma yoki shevaga xos variant sifatida qaraladi. **Tunika uriladi** birikmasi esa yog'och yuzasiga qoplama yoki qatlam berish jarayonini ifodalovchi kasbiy ifoda hisoblanadi.

Umumiy tahlil shuni ko'rsatadiki, duradgorlik leksikasida turkiy qatlam semantik va miqdoriy jihatdan ustunlik qiladi. Fors-tojik va arabcha qatlam so'zlari estetik va madaniy tushunchalarni boyitgan bo'lsa, rus va Yevropa o'zlashmalari texnika taraqqiyoti natijasida kirib kelgan. Natijada, ushbu soha leksikasi tarixiy rivojlanishning turli bosqichlarini o'zida mujassam etgan ko'p qatlamli tizimga aylangan.

“Duradgorlik leksikasining leksik-semantik xususiyatlaridan yana biri ko'chma ma'nolar orqali umumiy lug'at boyligiga ko'chishdir”[Tursunov U.,1992:198]. Bunday holatda termin o'zining asl kasbiy ma'nosidan kengayib, ko'chma ma'no hosil qiladi.

Masalan: *silliq* sifati duradgorlikda yog'och yuzasining tekisligini bildirsa, umumxalq tilida insonning muomalasi yoki nutqiga nisbatan qo'llanib, “muloyim”, “ravon” ma'nolarini anglatadi.

Eshak termini esa yog'ochni ushlab turuvchi tayanch moslamaning tashqi ko'rinishi va vazifasi jihatidan o'xshatish asosida yuzaga kelgan. Duradgorlikdagi *karobka* termini sandiqning hali to'liq bezatilmagan, dastlabki xomaki holatini ifodalab, tayyor mahsulotdan farqlaydi. Shuningdek, *chasvak, biqin, oyoq* kabi terminlar sandiqning aniq qismlarini xoslab nomlashga xizmat qiladi.

Xulosa o'rinda shuni aytish kerakki, G'ijduvon duradgorlik leksikasi ko'p qatlamli tizim bo'lib, unda turkiy qatlam so'zlari asosiy o'rinni egallasa, fors-tojik va ruscha o'zlashmalar esa estetik hamda texnik tushunchalarni ifodalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev A. O'zbek leksikologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2008. – 320 b.
2. Mamatkulova Z.R. O'zbek tilida duradgorlik leksikasining leksik-semantik tahlili // “Yosh olimlar” respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. 2025. – B. 44.
3. Tursunov U. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'zbekiston, 1992. – B. 198.

